

Falajlik turlari

Falajliklar lokalizatsiyasiga qarab quyidagi turlarga ajratiladi: **gemiparez (gemiplegiya)** – tananing bir tomoni falajlanishi; **monoparez (monoplegiya)** – bir qo'l yoki oyoq falajlanishi; **paraparez (paraplegiya)** – ikkala qo'l yoki ikkala oyoq falajlanishi; **tetraparez (tetraplegiya)** – ikkala qo'l ham, ikkala oyoq ham birgalikda falajlanishi.

Markaziy va periferik falajliklar

Markaziy neyron zararlanganda, **markaziy**, periferik neyron zararlanganda, **periferik falajlik** rivojlanadi. Ularning qiyosiy belgilari quyidagi jadvalda keltirilgan

Markaziy va periferik falajliklarning qiyosiy belgilari

Belgilar	Markaziy falajlik	Periferik falajlik
Chuqur reflekslar	Oshadi	Pasayadi yoki so'nadi
Teri reflekslari	Pasayadi	Pasayadi yoki so'nadi
Muskullar trofikasi	O'zgarmaydi	Atrofiya, gipotrofiya
Muskullar tonusi	Spastik gipertonus	Atoniya yoki gipotoniya
Patologik reflekslar	Chaqiriladi	Chaqirilmaydi
Klonuslar	Xos	Bo'lmaydi
Himoya reflekslari	Xos	Bo'lmaydi
Patologik sinkineziyalar	Xos	Bo'lmaydi
Fibrillyatsiya va fassikulyatsiyalar	Kuzatilmaydi	Kuzatiladi

Manba: © Z. Ibodullayev. Umumiy nevrologiya. Darslik. Toshkent, 2021., 312 b.

© Ibodullayev ensiklopediyasi © www.asab.uz